



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Jo'rayev B.N.

TDIU Samarqand filiali, "Buxgalteriya hisobi, soliq va moliya"  
kafedrası assistenti

## TURIZM KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Maqolada "turizm kompaniyalari moliyaviy barqarorligi" tushunchasining mazmuni, ahamiyati va xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shu bilan bir qatorda xorijiy mutaxassis va olimlarning korxonalar moliyaviy barqarorligi tushunchasi to'g'risida aytgan fikr va mulohazalari ham keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy holat, moliyaviy barqarorlik, likvidlilik, to'lov qobiliyati, moliyaviy-xo'jalik faoliyati, moliyaviy resurslar

**Аннотация:** В статье рассматриваются содержание, значение и характеристика понятия «финансовая устойчивость туристского предприятия». Приведены также мнения и комментарии зарубежных экспертов и ученых о понятии финансовой устойчивости предприятия.

**Ключевые слова:** финансовое состояние, финансовая устойчивость, ликвидность, платежеспособность, финансово-хозяйственная деятельность, финансовые ресурсы.

**Annotation:** The article discusses the content, meaning and characteristics of the concept of "financial sustainability of a tourist enterprise". The opinions and comments of foreign experts and scientists on the concept of the financial stability of an enterprise are also given.

**Keywords:** financial condition, financial stability, liquidity, solvency, financial and economic activity, financial resources.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini, xususan turizm kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyasi hajmining oshishi kompaniyalar moliyaviy barqarorligi tushunchasiga qaratilayotgan e'tiborni oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Turizm kompaniyalari moliyaviy barqarorligi bu kompaniya umumiy mablag'larining balanslashtirilganligi,

aktivlarning yetarlicha likvidiligi qolaversa boshqa moliyaviy xo'jalik faoliyatining mutanosib yo'lga qo'yilganligidir. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari standartlarini aniqlash eng muhim iqtisodiy jarayonlardan biridir. Moliyaviy barqarorlikning yetarli darajada emasligi ohir-oqibatda kompaniyaning to'lov qobiliyatini keskin tushib ketishiga bu esa bankrotlik holatiga olib kelishi mumkin.

Turizm kompaniyalari moliyaviy barqarorligi tushunchasining ahamiyati shundaki, turizm kompaniyasi moliyaviy barqarorligini ta'minlash uni boshqarishning eng muhim vazifasidir. Turizm kompaniyasi moliyaviy barqarorligi kompaniya daromadining xarajatlardan ko'p bo'lishini anglatadi, bu esa kompaniya mablag'larini erkin tasarrufini ta'minlab beradi va undan samarali foydalanish orqali mahsulot, xizmatning uzluksiz realizatsiya qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sub'yektlar moliyaviy barqarorligining quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

- zahira mablag'lari, mol yetkazib beruvchilar oldidagi kreditorlik qarzlari va qisqa muddatli qarzlardan hisobidan shakllantirilgan moliyaviy barqarorlik;

- mutlaq moliyaviy barqarorlik, bunda barcha zahiralarda o'z aylanma mablag'larini hisobidan shakllantiriladi;

- zahira mablag'larini shakllantirish uchun moliyalashtirish manbalari yetarli bo'lmagan beqaror vaziyat (to'lanmagan soliqlar, yig'imlar va ish haqi summalarining mavjudligi)[1];

- Kompaniya moliyaviy barqarorligining asosiy komponentlari:

- *-likvidlilik;*

- *-menejment;*

- *-moliyaviy egiluvchanlik;*

- *-operatsion ko'rsatkichlar;*

- *-kapitallashtirish;*

- *-investitsion faoliyat;*

- *-raqobatbardoshlilik;*

- *-risklilik darajasi* [2];

Moliyaviy barqarorlik tushunchasining xususiyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'z aylanma mablag'larining hajmi va strukturasi;

- kreditorlik qarzdorligi;

- debitorlik qarzdorligi;

- to'lov qobiliyati;

- kompaniya moliyaviy resurslari manbalarining tarkibi va h.k;

Kompaniyaning moliyaviy barqarorligi tushunchasiga xorijiy mutaxassis va olimlar tomonidan bir qancha ta'riflar berilgan xususan:

A.F. Ionova, N.N.Seleznyova - kompaniyaning moliyaviy barqarorligi bu korxonaning doimiy to'lovga layoqatliligi kafolatlanganligidir[3].

G.V. Savitskaya - moliyaviy barqarorlik bu subyekt xo'jalik faoliyatini boshqarish va rivojlanish imkoniyatining mavjudligi, o'zgaruvchan ichki va tashqi muhitda o'z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash, riskning maksimal darajasida ham doimiy to'lov qobiliyati va investitsion jozibadorligini kafolatlashdir[4].

A.D. Sheremet, R.S. Sayfulin – subyektning moliyaviy barqarorligi bu doimiy to'lov qobiliyatini ta'minlovchi hisob raqamlarining mavjudligidir[5].

Kovalyov V.V., Privalov V.P. - korxonaning moliyaviy barqarorligi bu korxonaning faoliyatining uzoq muddatli barqarorligidir. Bu, birinchi navbatda, korxonaning umumiy moliyaviy strukturasi, kreditorlar va investorlarga bog'liqlilik darajasi bilan bog'liq hisoblanadi[6].



P. Uilson - moliyaviy barqarorlik bu joriy va kelajakdagi majburiyatlarni to'lashda moslashuvchanlikni ta'minlash qobiliyatidir[7].

L.A. Bogdanovskaya, G.G. Vinogradov - korxonaning moliyaviy barqarorligi tushunchasi uzoq muddatli to'lov qobiliyati bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikni baholash sub'yektlarga korxonaning uzoq muddatli istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi[8].

M.V. Melnik, Gerasimova Y.B – korxonaning moliyaviy barqarorligi bu - ma'lum hajmdagi mahsulotlarni uzluksiz ishlab chiqarish va sotish jarayonini ta'minlash uchun yetarli miqdordagi kapitalga ega bo'lgan, shuningdek, o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lash, to'ldirish va rivojlanish uchun mablag'larni yaratish qobiliyatiga ega bo'lganlik darajasidir[9].

A.N. Dugushkina va Y.A. Timagina – moliyaviy barqarorlik yuridik shaxsning mavjud resurslardan foydalangan holda aktiv operatsiyalarga ajratilgan resurslarni qoplash va shu bilan birga debitorlik va kreditorlik qarzlari miqdorini nazorat qilish, ya'ni mavjud majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash qobiliyatidir[10].

Y.Y. Rumyanseva – moliyaviy barqarorlik bu - kredit layoqati va to'lov qobiliyatini kafolatlash uchun o'z kapitali orqali kompaniyaning rivojlanishiga asosiy hissa qo'shadigan moliyaviy resurslarning holatidir[11].

O.V. Yefimova - moliyaviy barqarorlik korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi tushuncha hisoblanadi, korxonada bunda moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish orqali daromadlarning xarajatlardan ko'p bo'lishini ta'minlashi nazarda tutiladi[12].

A.V. Bikadirov – korxonaning moliyaviy barqarorligi zahiralalar bilan ta'minlanganlik darajasi, qarz mablag'larining resurs bilan ta'minlanganligi, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar tizimidir[13].

N.Jilkina – moliyaviy barqarorlik uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun to'lov qobiliyati, ya'ni korxonaning asosiy va aylanma mablag'larining yetarli darajada ekanligidir[14].

F.B. Ripoll-Saragosi - moliyaviy barqarorlik korxonaning doimiy to'lov qobiliyatini kafolatlaydigan hisob raqamlarining holatidir[15].

Gilyarovskaya L. T., Vehoreva A. A. - moliyaviy barqarorlik daromadlarning xarajatlardan ko'p bo'lishini va moliyaviy resurslarning holatini aks ettiradi. Moliyaviy barqarorlik korxonada mablag'larining erkin harakatlanishini ta'minlaydi va ulardan samarali foydalanish orqali mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini ta'minlab beruvchi vositadir[16].

Donsova L.V. va Nikiforova N.A. - moliyaviy barqarorlik korxonaning moliyaviy holatining o'ziga xos xususiyati bo'lib, moliyaviy barqarorlik, foydalaniladigan moliyaviy resurslarning umumiy hajmida o'z kapitalining yuqori ulushi orqali ta'minlanadi[17].

Bank V.R., Bank S.V., Taraskina A.V. - korxonaning moliyaviy barqarorligi bu - risklilik sharoitida uzluksiz ishlay olish qobiliyati, yetarli darajada rentabellik va majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash qobiliyatini ta'minlaydigan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish holatidir[18].

Benderskaya O.B. va Slabinskaya I.A. - moliyaviy barqarorlik korxonaning, salbiy omillar ta'sirida ham normal moliyaviy holatini saqlab turish qobiliyatidir[19].

Bocharov V.V. - moliyaviy barqarorlik normal ishlab chiqarish va tijorat faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni samarali shakllantirish va ulardan foydalanish bilan tavsiflanuvchi tushunchadir.[20].

Vasina A.A. - korxonaning moliyaviy barqarorligi korxonaning o'z majburiyatlarini to'lash va korxonaga egalik huquqini uzoq muddat saqlab qolish qobiliyatidir [21].

Tsal-Tsalko Y.S. moliyaviy barqarorlik bu - korxonaning doimiy to'lov qobiliyatini kafolatlaydigan aktivlarining holatidir [22].



A.V. Grachov - kompaniyaning moliyaviy barqarorligi bu to'lov qobiliyatining yuqoriligi, bozor konyukturasi va partnyorlar harakatlaridan mustaqil bo'lishdir deb hisoblaydi shu bilan bir qatorda moliyaviy barqarorlikning quyidagi asosiy qoidalari mavjud deb e'tirof etadi.

- to'lov qobiliyati, iqtisodiy o'sish va joriy likvidlilik o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar bo'lib, ularning har biri kompaniyaning moliyaviy holatiga ta'sir qilishi mumkin;

- qoida tariqasida, iqtisodiy o'sish va likvidlilikning ikki baravar oshishiga o'z mablag'larining etishmasligi va tashqi qarz mablag'lari hisobiga erishiladi;

- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichi eng muhim baholash ko'rsatkichi bo'lib, korxonaning o'z mablag'lari hisobidan qarzlari va majburiyatlarini to'lash qobiliyatini aks ettiradi, shuningdek o'z kapitalining o'sish sur'ati va joriy likvidlilikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi[23];

Yesembekova A.J.ning fikriga ko'ra, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi "nuqtalari" quyidagilardir:

-kompaniyaning moliyaviy moslashuvchanligi - bu kompaniyaning o'zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashuvchanligi, shuningdek moliyaviy resurslarni investitsiya qilish yo'nalishini o'zgartira olish qobiliyatidir.;

-kompaniyaning moliyaviy balansi kompaniya rivojlanish muvozanatini tavsiflaydi, bu muvozanatga rentabellik va risklilikning maqbul kombinatsiyasi orqali erishiladi[24]

Bekrenova V.A. – korxonada moliyaviy barqarorligi darajasini aniqlashni quyidagi yo'nalishlarini keltirgan:

-korxonada moliyaviy barqarorligi o'z kapitali strukturasi orqali aniqlanadi

-moliyaviy barqarorlik aktiv va passiv muvozanati orqali ta'minlanadi[25].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti subyektlarning barqaror rivojlanishi tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltirgan: "Barqaror va uzoq muddatli rivojlanish - bu doimiy uyg'unlik holati emas, balki resurslardan foydalanish ko'lamini, investitsiyalar yo'nalishi, rivojlanishning texnik darajasining yo'nalishi bo'lgan o'zgarish jarayonidir. Institutsional o'zgarishlar hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarga to'liq mos keladi"[26].

Zamonaviy moliya-kredit lug'ati "Subyektning barqarorligi" tushunchasini "barqaror pul muomalasi", "korxonaning barqaror holati", "narx barqarorligi" va "barqaror majburiyatlar" tushunchalariga sinonim sifatida ta'riflaydi[27].

Olimlar va mutaxassislarining "korxonaning moliyaviy barqarorligi" atamasi bo'yicha fikrlarini tahlil qilish shuni anglatadiki, bugungi kunda yuqoridagi atamaning mazmuni va mohiyatini to'liq ochib beruvchi yagona ta'rif mavjud emas. Aksariyat xorijiy tadqiqotchilar kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, bir tomondan uzoq muddatli kreditga layoqatlilik va to'lov qobiliyatining mavjudligi sifatida, boshqa tomondan o'z kapitali va zahiralari hajmining yuqoriligi deb hisoblashini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda turizm kompaniyasi moliyaviy barqarorligi tushunchasini quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1 Moliyaviy barqarorlik turistik kompaniya moliyaviy holatining muhim tarkibiy xususiyati hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikning kompaniya moliyaviy holatining boshqa xususiyatlaridan farqi shundaki, moliyaviy barqarorlik kompaniya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tarkibi va strukturasi orqali tavsiflanadi.

2. Moliyaviy barqarorlik tushunchasi turistik kompaniyaning barqaror faoliyati va mustaqilligini belgilaydi, kompaniya to'lov qobiliyati tushunchasi esa moliyaviy barqarorlikning bir qismini tashkil etadi.



Shunday qilib moliyaviy barqarorlik tushunchasi ko'p qirrali tushuncha ekanligini va uni aniqlashning bir qancha usullari mavjudligini ta'kidlashimiz joiz. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, kompaniyaning majburiyatlari va aktivlarining mavjudligi, ularning tarkibi va tuzilishi bilan bog'liq. Shu bilan bir qatorda, turistik kompaniya to'lov qobiliyati yoki tashqi qarzlar hajmi nuqtai nazaridan mustaqilligi bilan tavsiflash qolaversa har qanday risklilik darajasida ham o'z faoliyatini barqaror va samarali amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.A.D. Sheremet “Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности”. — М.: ИНФРА-М, 2008.
- 2.Y.S. Shten, “Финансовая устойчивость предприятия и методики ее анализа”, Вестник магистратуры. 2013. №10(25), Tyumen davlat universiteti.
- 3.A.F. Ionova, N.N.Seleznyova. “Финансовый анализ: учебное пособие”. М.: Юнити-Дана, 2001. 479 b
- 4.G.V. Savitskaya. “Анализ хозяйственной деятельности предприятия”: Учеб- ник. 5-е изд. — М.: Инфра-М, 2011. — 536 b.
- 5.A.D. Sheremet “Методика финансового анализа” — М.: Инфра-М, 2010. — 574 b.
- 6.Kovalyov V.V., Privalov V.P..Анализ финансового состояния предприятия. — М.: Центр экономики и маркетинга, 2003.
- 7.P.Uilson “Финансовый менеджмент в малом бизнесе”: Ingliz tilidan tarjima. М.: Аудит, 1995. 455 b.
8. L.A. Bogdanovskaya, G.G. Vinogradov. “Анализ хозяйственной деятельности в промышленности”: Учебник /;— М.: Oliy maktab, 2013. — 310 b.
9. M.V. Melnik, Gerasimova Y.B. “Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия”: Учебное пособие.- М.: ФОРУМ: ИНФРА –М, 2008.-192 b
- 10.A.N. Dugushkina va Y.A. Timagina. “Современные проблемы обеспечения финансовой устойчивости предприятия и пути их решения” // Ilmiy-amaliy konferensiya to'plami – 2018. – № 1. –50-55 betlar.
11. Y.Y. Romyanseva “Финансовый менеджмент”. – М.: Юрайт, 2019. – 360 b.
12. O.V. Yefimova “Анализ финансовой отчетности”: учеб. пособ. / М. : Омега-Л, 2013. 388 b.
- 13.A.V. Vikadirov “Финансово-экономическое состояние предприятия : практическ”. пособ. /— М. : ПРИОР, 2013. — 96 b.
14. N.Jilkina “Управление финансами. Финансовый анализ предприятия” : учебник / N.Jilkina — М. : ИНФРА-М, 2014. С. 426.
15. F.B. Ripoll-Saragosi. “Финансовый и управленческий анализ” / F.B. Ripoll-Saragosi. — М. : Приор, 2007. — 451 b.
16. Gilyarovskaya L. T., Vehoreva A. A. “Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия”. СПб.: Петербург, 2003, 256 и
17. Donsova L.V., Nikiforova N.A. “Анализ финансовой отчетности”. М.: Дело и сервис, 2005. 368 b.
18. Bank V.R., Bank S.V., Taraskina A.V. “Финансовый анализ: учебное пособие”. М.: ТК Вел- би, Изд-во Проспект, 2005. 344 b.
19. Benderskaya O.B., Slabinskaya I.A. “Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия”. Белгород: Изд-во БГТУ, 2011.





20. Bocharov V.V. “Финансовый анализ”. СПб.: Петербург, 2006. 240 б.
21. Vasina A.A “Анализ финансового состояния компании” /. - М.: ИКФ «Альф», 2003. - 251 б.
22. Tsal-Tsalko Y.S “Финансовая отчетность предприятия и анализ”: Учебн. пособие/– Киев: ЦУЛ, 2002. – 360 б.
23. A.V. Grachov. “Анализ и управление финансовой устойчивостью предприятия”: Учебно-практическое пособие. — М.: Финпресс, 2009. — 208 б.
24. Yesembekova A.J “Финансовая безопасность — основа финансовой устойчивости” / Проблемы современной экономики: II xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. (Челябинск, октябрь 2012 у.). — Челябинск: Два комсомольца, 2012. —81-83 б.
25. Bekrenova V.A. “Финансовая устойчивость организации. Проблемы анализа и диагностики” — М. : Дашков. 2012. — 60 б.
26. BMT ning “Atrof muhit va rivojlanish” to’g’risida o’tkazilgan konferensiyasi materiallari., 1992 yil Rio-de Janeyro shahri.
27. M.G. Lapust, P.S., Nikolskiy “Zamonaviy moliya-kredit lug’ati”, 2-tahrir — М. : ИНФРА-М, 2002. — 567 б